




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba‘zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANIDAGI “SAR SILA” MAROSIMI: AN’ANA VIY UDUM VA UNING RAMZIY TALQINI

"SAR SILA" CEREMONY IN CHUST DISTRICT, NAMANGAN REGION: TRADITIONAL CUSTOM AND ITS SYMBOLIC INTERPRETATION

Muslima AMINJONOVA,

TOSHDO‘TAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UEPU2123

Annotation: *This article analyzes the “Sar sila” ritual, which is characteristic of the Uzbek and Tajik populations living in the Chust district of Namangan region, based on ethnographic and symbolic approaches. The symbolic meanings of the main components of the ritual— the father’s farewell to the bride, the recitation of the Qur’an, the offering of a white blessing (oq fotiha), the placing of a ring on the bride by the groom’s sister, the performance of the “yor-yor” song, and the custom of throwing a white scarf—are thoroughly examined. Drawing on the theoretical views of scholars who have studied Uzbek folk rituals and symbolism, the article highlights the social, religious, and educational significance of the “Sar sila” ritual.*

Key words: *Chust district, marriage ceremonies, sar sila, white blessing, yor-yor, white scarf, ring, folk traditions.*

O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari milliy madaniyatning muhim qatlamini tashkil etib, ular orqali jamiyatning axloqiy me‘yorlari, diniy qarashlari va ijtimoiy munosabatlari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, nikoh bilan bog‘liq marosimlar inson hayotidagi eng muhim bosqich – oilaviy hayotga o‘tishni, yigit va qizning yangi maqomga ya‘ni er-xotin maqomiga erishishini ramziy tarzda belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, yurtimizning har bir hududida saqlanib qolgan marosimlar xalqning tarixiy xotirasi va madaniy o‘zligini aks ettirishga xizmat qiladi. Namangan viloyati Chust tumanida o‘tkaziladigan “Sar sila” marosimi kelinni ota uyidan uzatish jarayonida amalga oshiriladigan muhim udumlardan biri bo‘lib, u qizning ijtimoiy maqomi o‘zgarishini diniy va ma’naviy jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi “Sar sila” marosimini ilmiy tahlil qilish, uning tarkibidagi ramzlarning mazmunini ochib berishdan iborat.

“Sar sila” marosimining etnografik tavsifi. *Chust tumani (Namangan viloyati)* o‘zining boy madaniy merosi va qadimiy urf-odatlar bilan tanilgan hududlardan biri bo‘lib, marosim folklori bu yerda muhim ahamiyatga ega. Chust asrlar davomida hunarmandchilik, xususan, pichoqchilik va do‘ppi tikish an‘analari bilan mashhur bo‘lgani kabi, marosim madaniyatida ham o‘ziga xos an‘analarni saqlab keladi. O‘zbek va tojik aholi orasida to‘y marosimlariga oid qo‘shiqlar, o‘lanlar, duolar, aytimlar hamda

mavsumiy udumlar bugungi kungacha faol qo'llanib kelinadi. Shulardan biri **“sar sila”** marosimidir.

“Sar” so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib *“bosh”* degan ma‘noni, *“sila”* so‘zi esa, o‘zbek tilidagi *silamoq* fe‘li bilan bir xil ma‘noni anglatadi. Shunday ekan, bu marosimni o‘zbekcha nomlaydigan bo‘lsak, *“bosh silash”* birikmasiga to‘g‘ri keladi. “Sar sila” marosimi kelin kuyovnikiga ketishidan avval, kelinning ota uyida o‘tkaziladi. Marosim davomida kelinning otasi qizi bilan xayrlashadi, unga nasihat va duo qiladi. Ushbu jarayonda Qur‘on oyatlari tilovat qilinib, oq fotiha beriladi. Bu amallar marosimning diniy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kuyov tomonidan kelgan yangalar doira jo‘rligida *“yor-yor”* qo‘shig‘ini ijro etadilar. Marosim boshlanishidan oldin, kuyovning yangalari kirmasdan avval, kelinning boshiga katta oq ro‘mol tashlab qo‘yiladi. Bu ketma-ketlik marosimning ichki tuzilishini va ramziy yaxlitligini ta‘minlaydi.

Qozoq olimi *K.Matijanov* aytganidek: “Folklorning, jumladan, ayniqsa marosim folklor estetikasining(poetikasining)ichki o‘zagini marosimiy dunyoqarash tashkil etadi yoki uni “ marosimiy o‘ylash”deb atash ham mumkin. Uning o‘zagida har bir xalqning o‘z dunyoqarashi yotadi”[1: 33].

Otaning xayrlashuvi – ijtimoiy ramz. Bilamizki, ota duosi va roziligi bilan bog‘liq marosimlar o‘zbek xalqida nikohning qonuniy va ma‘naviy asosini mustahkamlovchi, qizning baxtli bo‘lishidagi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. “Sar sila” marosimida otaning kelin bilan xayrlashuvi qizning ota himoyasidan chiqib, yangi oilaga mas‘uliyat bilan kirib borayotganini anglatadi. Bu holat oilada otaning yetakchi mavqeini ramziy tarzda ifodalaydi. Qur‘on tilovati va oq fotiha ramzi. O‘zbek marosimlarida Qur‘on o‘qish va fotiha berish amali diniy baraka va himoya ramzi hisoblanadi. Etnolog olim *A.Jabborov*ning fikricha, fotiha berish orqali insonning muhim hayotiy bosqichi ilohiy quvvat bilan mustahkamlanadi. Oq fotiha esa, pok niyat va halollik timsoli bo‘lib, kelinning yangi hayoti Alloh panohida bo‘lishini ifodalaydi. “Sar sila” marosimida ham kuyovning yangalari yor-yor aytib bo‘lgach, kelinning otasi kirib qur‘on tilovat qiladi va eng yaxshi niyatlar,nasihatlar qilib, qiziga oq fotiha beradi.

“Yor-yor” qo‘shig‘i va doira – og‘zaki ijod va jamoaviylik ramzi. “Yor-yor” o‘zbek xalq marosim folklorining eng qadimiy janrlaridan biridir. Folklorshunos *K.Imomov*ga fikriga ko‘ra, *“yor-yor”* matnlarida quvonch va ayriliq motivlari uyg‘unlashib, kelinning ikki olam – ota uyi va yangi xonadon o‘rtasidagi o‘tish holatini ifodalaydi. Doiraning jo‘rligida ijro etilishi esa marosimga tantanavorlik bag‘ishlab, jamoaviy birdamlikni kuchaytiradi. Kuyov yangalari *“yor-yor”* aytayotgan paytda, kuyovning opasi yoki singlisi kelinga uzuk taqadi.

Oq ro‘mol – ayollik va poklik ramzi. O‘zbek xalqi orasida nikoh to‘yi marosimlarining ko‘pchilik uzvlari ro‘mol, ro‘molcha ishtirokida o‘tadi. Bir so‘z bilan aytilsa, marosimlardagi ro‘mol obrazining ramziy tub o‘zak ma‘nosi **“OILA”**ga to‘g‘ri keladi [2: 23]. Oq rang o‘zbek an‘analarida muqaddaslik, tozalik va sadoqat bilan bog‘lanadi. Etnograf olim *N.Islomov*ning tadqiqotlariga ko‘ra, kelin boshiga oq ro‘mol tashlash marosimi ayolning yangi ijtimoiy maqomini belgilovchi ramziy amal hisoblanadi.

Bu udum kelinning endilikda oila sha’ni va axloqiy qadriyatlarini asrash mas’uliyatini olganini anglatadi. Marosim davomida kelin boshiga oq ro‘mol tashlanishi va uzuk taqilishi ayollik, poklik, sadoqat hamda yangi ijtimoiy maqom ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Oq ro‘mol kelinning endilikda oila sha’ni va axloqiy qadriyatlarini asrash mas’uliyatini zimmasiga olganini bildirsa, uzuk nikohning barqarorligi va oila rishtalarining mustahkamligini ifodalaydi. Ushbu ramzlar orqali “sar sila” marosimi yosh avlod ongida oilaviy mas’uliyat, sadoqat va axloqiy poklik tushunchalarini shakllantiruvchi tarbiyaviy mexanizm vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Namangan viloyati Chust tumanida saqlanib kelayotgan “Sar sila” marosimi o‘zbek xalqining nikoh bilan bog‘liq an’anaviy udumlari tizimida muhim o‘rin tutuvchi, chuqur ramziy mazmunga ega bo‘lgan marosimlardan biridir. Ushbu marosim nafaqat kelinni ota uyidan kuzatish jarayonining tarkibiy qismi, balki inson hayotidagi muhim ijtimoiy bosqich – qizlik maqomidan ayollik, ya’ni oila a’zosi maqomiga o‘tish jarayonini ma’naviy, diniy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Sar sila” marosimi Chust tumani aholisi, xususan, o‘zbek va tojik xalqlarining tarixiy xotirasi, etnik o‘ziga xosligi va madaniy dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan an’anaviy marosim sifatida qadrlidir. Ushbu marosimning bugungi kungacha saqlanib kelayotgani uning jamiyat hayotida ijtimoiy, diniy va ma’naviy ehtiyojlarga mos ravishda yangilanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bois “sar sila” marosimini ilmiy jihatdan o‘rganish, hujjatlashtirish va targ‘ib etish o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosini asrash va kelajak avlodga yetkazish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матыжанов К. Қазақтың отбасылық ғұрып фольклоры. – Алматы, 2007.
2. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent: Fan, 2020. – 130 b.
3. Qodirov M. O‘zbek xalq marosimlari va urf-odatları. – Toshkent: Fan, 1998.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiq, 2010. – 370 b.
5. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent, 1994. – 312 b.
6. Islomova N. O‘zbek ayollari marosim madaniyati. – Toshkent, 2012.